

UDK: 004:37.018.43

O‘QITUVCHIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Komilova Mijgona Baxodirovna
OSIYO XALQARO UNIVERSITETI
Magistratura bosqichi talabasi
+998905143830

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini shakllantirish masalasi yoritilgan. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu boisdan maqolada pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida AKTdan foydalanish malakasini shakllantirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif ta’limda raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim platformalari, interfaol dasturlar, sun’iy intellekt asosidagi vositalardan foydalanish imkoniyatlarini ochib bergan. Shuningdek, o‘qituvchilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari sifatida innovatsion treninglar, tajriba almashish, mustaqil ta’lim, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va elektron resurslar bilan ishlash kabi metodlar ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida AKTdan samarali foydalanish malakalari ularning dars jarayonidagi kreativlik va interfaollikni oshirishi, o‘quvchilar bilim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, pedagogik kompetensiya, o‘qituvchi malakasi, raqamli ta’lim, metodik yondashuv, innovatsion trening.

Annotation: This article explores the issue of developing teachers’ skills in using information and communication technologies (ICT) in the educational process. Effective application of modern ICT tools in teaching is considered one of the key indicators of teachers’ professional competence. Therefore, the article analyzes the theoretical foundations, methodological approaches, and practical mechanisms of forming ICT usage skills in teacher training and retraining processes. The author highlights the opportunities of digital technologies, distance learning platforms, interactive applications, and AI-based tools in education. Furthermore, the article presents ways of enhancing teachers’ ICT competence through innovative training programs, experience-sharing practices, independent learning, and working with educational-methodical materials and electronic resources. The findings indicate that the development of ICT skills among teachers not only improves their professional growth but also increases creativity and interactivity in the learning process, thereby positively affecting the quality of students’ knowledge.

Keywords: information technology, pedagogical competence, teacher skills, digital education, methodological approach, innovative training.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема формирования у педагогов навыков использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовательном процессе. Эффективное применение современных цифровых средств обучения рассматривается как один из ключевых показателей профессиональной компетентности учителя. В статье проанализированы теоретические основы, методические подходы и практические механизмы формирования ИКТ-компетентности в процессе подготовки и переподготовки педагогических кадров. Особое внимание уделено возможностям использования цифровых технологий, платформ дистанционного обучения, интерактивных программ и инструментов, основанных на искусственном интеллекте. Кроме того, предложены пути развития ИКТ-навыков педагогов через инновационные тренинги, обмен опытом, самостоятельное обучение, работу с учебно-методическими материалами и электронными ресурсами. Результаты исследования показывают, что формирование ИКТ-компетентности способствует не только профессиональному росту учителя, но и повышает креативность и интерактивность учебного процесса, что положительно влияет на качество знаний учащихся.

Ключевые слова: информационные технологии, педагогическая компетентность, профессиональные навыки учителя, цифровое образование, методический подход, инновационные тренинги.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimi oldida yangi vazifalar va talablar yuzaga kelmoqda. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim vosita sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida multimedia vositalari, elektron darsliklar, interfaol platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu jarayon o‘qituvchilardan nafaqat zamonaviy texnologiyalarni bilish, balki ularni o‘z pedagogik faoliyatida samarali tatbiq eta olish malakasini ham talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish masalalariga davlat darajasida alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, o‘qituvchilarni AKTdan foydalanishga o‘rgatish, ularning malaka oshirish jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish vazifalari belgilangan. Bu esa o‘qituvchilarning axborot texnologiyalari bo‘yicha kasbiy malakasini doimiy ravishda rivojlantirishni talab etadi.

O‘qituvchining zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati ta’lim jarayonining sifati oshirish, o‘qituvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tanqidiy yondashuvni shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, ta’lim tizimida o‘qituvchilarda AKTdan foydalanish malakalarini shakllantirish bo‘yicha samarali metodlar va

yondashuvlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur maqolada o‘qituvchilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda amaliy mexanizmlar yoritib beriladi. Shuningdek, innovatsion treninglar, tajriba almashish dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va elektron resurslar yordamida o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida AKTni samarali qo‘llash yo‘llari tahlil qilinadi.

O‘qituvchida axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining nazariy asoslari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak. Ta‘lim tizimida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi ko‘p qirrali bo‘lib, unda metodik, kommunikativ, psixologik hamda texnologik tayyorgarlik uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy davrda aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malakasi o‘qituvchining raqamli savodxonligi va innovatsion pedagog sifatida shakllanishining muhim ko‘rsatkichi sanaladi.

Pedagogik faoliyatda AKTdan foydalanish nazariy jihatdan quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Didaktik asos – ta‘lim jarayonida interfaol dasturlar, multimedia vositalari va virtual resurslardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish;

Psixologik asos – AKT yordamida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning individual imkoniyatlariga mos sharoit yaratish;

Pedagogik asos – raqamli muhitda yangi metod va strategiyalarni qo‘llash, ta‘limni shaxsga yo‘naltirish, mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Shuningdek o‘qituvchilar malakasini shakllantirishda axborot texnologiyalarining o‘rni haqidaham so‘z yuritish maqsadga muvofiq sanaladi. O‘qituvchilarning texnologik tayyorgarligi, avvalo, ularning kasbiy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o‘qituvchilardan quyidagi malakalarga ega bo‘lish talab etilmoqda. Bular kompyuter va mobil texnologiyalarni samarali qo‘llash, ta‘limiy platformalar (Google Classroom, Moodle, Edmodo va boshqalar)da ishlash, elektron taqdimotlar, videodarslar va raqamli testlarni yaratish, internet resurslaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish va axborot xavfsizligi va raqamli etikaga rioya qilish. Bu kabi malakalarning shakllanishi o‘qituvchilarga dars jarayonida nafaqat ma‘lumotni uzatish, balki uni o‘quvchi uchun qiziqarli va interfaol shaklda taqdim etish imkonini beradi.

O‘qituvchilarning texnologik kompetensiyasini rivojlantirish ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u quyidagi yo‘llar orqali amalga oshiriladi. Yani malaka oshirish kurslari va treninglar. Innovatsion treninglar, seminarlar va vebinarlar o‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Treninglar jarayonida o‘qituvchilar turli dasturiy vositalardan foydalanishni amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rganadilar.

Shuningdek amaliy tajriba va hamkorlikda o‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashish orqali yangi metodlarni o‘zlashtiradilar. Professional hamjamiyatlar va onlayn forumlarda qatnashish ularning bilimlarini boyitadi.

O‘qituvchilar onlayn kurslar (Coursera, Udemy, Khan Academy) orqali o‘z bilimlarini kengaytiradilar. O‘z faoliyatida innovatsion dastur va platformalarni sinab ko‘rish orqali amaliy tajribaga ega bo‘ladilar. Raqamli darsliklar, elektron metodik qo‘llanmalar va ochiq ta‘lim resurslaridan foydalanish o‘qituvchilarning texnologik madaniyatini rivojlantiradi.

O‘qituvchining AKT malakasini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish jihatlari ham e‘tibor berish maqsadga muvofiq sanaladi. Amaliyotda o‘qituvchilarda AKTdan foydalanish malakalarini shakllantirishda qator muammolar uchraydi. Bular ayrim hududlarda texnik vositalar yetishmasligi, internet tezligi va sifatining pastligi, o‘qituvchilarning yangi texnologiyalarga nisbatan psixologik tayyorgarligining sustligi va metodik ta‘minotning yetarli emasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Ta‘lim muassasalarini zamonaviy texnika bilan jihozlash, internet infratuzilmasini yaxshilash, o‘qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish dasturlarini joriy etish va raqamli ta‘lim resurslarini yaratish va ularni keng ommaga taqdim etish orqali muammolar bartaraf etiladi.

Ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi faqatgina metodik va pedagogik tayyorgarlik bilan emas, balki uning raqamli savodxonligi, ya‘ni zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash darajasi bilan ham belgilanadi. Shuning uchun o‘qituvchilarda AKTdan foydalanish malakalarini shakllantirish ularning kasbiy rivojlanishi va ta‘lim samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasi o‘qituvchining zamonaviy kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi bo‘lib, ta‘lim sifatini oshirish, interfaollikni ta‘minlash hamda o‘qituvchilarni mustaqil fikrlash va ijodkorlikka yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchilarni AKTdan foydalanishga tayyorlash jarayoni nazariy-metodik asoslar, innovatsion treninglar, tajriba almashish dasturlari, mustaqil ta‘lim hamda elektron resurslardan foydalanish orqali samarali tashkil etilishi mumkin.

Amaliyotda uchraydigan muammolar – texnik vositalarning yetishmasligi, internet sifatining pastligi, metodik ta‘minotning sustligi va psixologik to‘siqlar – davlat siyosati va ta‘lim muassasalarining ichki imkoniyatlari hisobiga bosqichma-bosqich hal qilinishi zarur.

O‘qituvchilarda AKT malakasini rivojlantirish ularning o‘qituvchilar bilan ishlash uslubi va metodikasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ta‘lim jarayonini yanada samarali, kreativ va innovatsion yo‘nalishda tashkil etishga yordam beradi.

Shu boisdan, kelgusida o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayonida raqamli ta‘lim texnologiyalarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratish, AKT asosida yangi metodik qo‘llanmalar yaratish va ularni amaliyotga keng tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshiradi, balki butun ta‘lim tizimining sifat ko‘rsatkichlarini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori: “2022–2026-yillarda raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2022.
3. Qodirova, N. A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonida. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2021. – 184 b.
4. Raximov, B. S. Pedagoglarda raqamli kompetensiyani shakllantirish yo‘llari. – Toshkent: Innovatsion ta’lim, 2022. – 210 b.
5. Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record*, 2006, 108(6), pp. 1017–1054.
6. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO, 2018.
7. Anderson, J., & van Weert, T. J. Information and Communication Technology in Education: A Curriculum for Schools and Programme of Teacher Development. Paris: UNESCO, 2002.
8. Kozma, R. B. Technology, Innovation, and Educational Change: A Global Perspective. Eugene, OR: ISTE, 2003.
9. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. London: Bloomsbury Academic, 2017.
10. Voogt, J., & Knezek, G. International Handbook of Information Technology in Primary and Secondary Education. New York: Springer, 2008.